


## II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 29 100,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, sanoat ishlab chiqarish indeksi 108,2 foizni tashkil etdi.


2024- yil yanvar- dekabr oylarida tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash 6,2 mlrd so'm, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmi 28 086,4 mlrd so'm, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash 821,5 mlrd so'm va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish 186,0 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.

### 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlarini sanoat ishlab chiqarish hajmi (mlrd so'm)



### Asosiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi, %

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning 92,5 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 108,7 % ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 101,9 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 94,1 % ga o'sishi kuzatildi.




■ 2023- yil yanvar-dekabrga nisbatan %, da

### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2024- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 6,2 mlrd soʻmni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,021 % ni va oʻsish surʻati indeksi 92,5 % ni tashkil etdi.

### Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash hajmi va fizik hajm indeksi




## Ishlab chiqaradigan sanoat

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 29 100,1 mlrd so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 96,517 % ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog‘ning ulushi 0,12 % ni (2023- yil yanvar-dekabr oylarida – 0,18 %), o‘rta-yuqori texnologiyali – 41,8 % (2023- yil yanvar-dekabr oylarida – 38,9 %), o‘rta-quyi texnologiyali – 6,5 % (2023- yil yanvar-dekabr oylarida – 5,4 %) va quyi texnologiyali – 49,8 % (2023- yil yanvar-dekabr oylarida – 52,3 %)ni tashkil etdi.

### Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo‘yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, %da



Jami viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 33,7 mlrd so‘mlik (2023- yil yanvar-dekabr oylarida 43,3 mlrd so‘m), o‘rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 11 732,1 mlrd so‘mlik (2023- yil yanvar-dekabr oylarida 9 145,0 mlrd so‘m), o‘rta-quyi texnologiyali tarmoqda 1 838,5 mlrd so‘mlik (2023- yil yanvar-dekabr oylarida 1 279,1 mlrd so‘m), quyi texnologiyali tarmoqda 14 482,1 mlrd so‘mlik (2023- yil yanvar-dekabr oylarida 12 302,5 mlrd so‘m) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida  
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish  
(2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun)**

<b>Mahsulot turlari</b>	<b>O‘lchov birligi</b>	<b>2024- yil yanvar-dekabr</b>	<b>2023- yil yanvar-dekabr</b>	<b>2023- yil yanvar-dekabr nisbatan, % da</b>
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz)	dona	101 912,0	89 141,0	114,3
Maxsus yengil avtomobillar	dona	24 688,0	24 671,0	100,1
Aroq	ming litr	291,9	65,7	4,4 m.
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari	ming litr	413,8	650,7	63,6
Gilam va gilam mahsulotlari	ming m.kv	2 943,0	3 080,0	95,6
Yumshoq bug‘doy va spelta uni	tonna	35 589,4	45 922,3	77,5
Tozalangan o‘simlik yog‘i	tonna	6 954,1	5 505,0	126,3
Paxtadan yigirilgan ip	tonna	40 238,9	31 715,2	126,9
Paxta tolasi	tonna	110 518,9	97 905,5	112,9
Paxta chigiti	tonna	175 429,0	165 669,3	105,9
Shakar	tonna	206 596,9	233 339,4	88,5

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillarsiz) – 12 771 donaga, maxsus yengil avtomobillar – 17 donaga, paxtadan yigirilgan ip – 8 523,7 tonnaga, paxta tolasi – 12 613,4 tonnaga ishlab chiqarish ko‘paygan.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash**

Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 821,5 mlrd so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 2,82 % ni) tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash hamda bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash tizimi hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 101,9 % ni tashkil etdi.

**Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalashda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish (2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun)**

	O‘lchov birligi	2024- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabrda nisbatan, % da
Elektroenergiya	mln.kVt/s	1 263,9	1 414,1	89,4
Issiqlik energiyasi	ming Gkall	111,1	123,2	90,2

**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish**

Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 186,0 mlrd so‘mni jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,64 % ni tashkil etdi.

**Suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishda yirik sanoat korxonalari tomonidan natura ko‘rinishida ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

(2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun)

Faoliyat turlari	O‘lchov birligi	2024- yil yanvar-dekabr	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo‘yicha taqsimlash bo‘yicha xizmatlar	mlrd.so‘m	170,4	107,8
Oqava suvlarni yo‘qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo‘yicha xizmatlar	mlrd.so‘m	18,6	2,1 m.
Shahar xo‘jaligining qayta foydalanishga yaroqli xavfsiz chiqindilarini yig‘ish bo‘yicha xizmatlar	mlrd so‘m	44,1	151,5

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**  
(2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun)

<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr (mlrd so'm)</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr (mlrd so'm)</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi jami</b>	<b>29 100,1</b>	<b>23 520,6</b>
<b>Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>6,2</b>	<b>5,7</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'- kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	6,2	5,7
<b>Ishlab chiqaradigan sanoat</b>	<b>28 086,4</b>	<b>22 769,9</b>
<i>shundan:</i>		
Oziq- ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	5 471,9	4 926,4
Ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish	2 073,9	2 086,8
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	5 578,8	4 549,4
Kiyim ishlab chiqarish	447,0	164,2
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	42,1	18,2
Yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlari, ishlab chiqarish	166,4	64,5
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	304,7	255,5
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	14,0	8,1
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	15,8	51,2
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	78,4	57,7
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va preparatlari ishlab chiqarish	16,2	11,9
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	167,9	115,5
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	944,4	652,4
Metallurgiya sanoati	74,8	58,4
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	594,1	387,0
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	17,4	31,4

<i>Iqtisodiy faoliyat turlari</i>	<i>2024- yil yanvar-dekabr (mlrd so‘m)</i>	<i>2023- yil yanvar-dekabr (mlrd so‘m)</i>
Elektr uskunalar ishlab chiqarish	72,9	91,7
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalar ishlab chiqarish	421,4	160,2
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	11 159,4	8 835,4
Mebel ishlab chiqarish	272,9	118,3
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	110,6	111,1
Mashina va uskunalarni ta‘mirlash va o‘rnatish	41,5	14,5
<b>Elektr, gaz, bug‘ bilan ta‘minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>821,5</b>	<b>603,0</b>
<b>Suv bilan ta‘minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig‘ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>186,0</b>	<b>142,0</b>

Iqtisodiy faoliyat turlaridan 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish 5 578,8 mlrd so‘m (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 4 549,4 mlrd so‘m), avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 11 159,4 mlrd so‘m (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 8 835,4 mlrd so‘m), boshqa no metall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 944,4 mlrd so‘m (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 652,4 mlrd so‘m), mebel ishlab chiqarish 272,9 mlrd so‘m (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 118,3 mlrd so‘m), oshganligini, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarish 2 073,9 mlrd so‘m (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 2 086,8 mlrd so‘m), koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish 15,8 mlrd so‘m (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 51,2 mlrd so‘m), elektr uskunalari ishlab chiqarish 72,9 mlrd so‘m (2023- yilning yanvar-dekabr oylarida 91,7 mlrd so‘m) kamayganligini ko‘rish mumkin.


**Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish**  
*(2024- yil yanvar-dekabr oylari uchun)*  
*(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan, % da)*

Shahar va tumanlar nomi	Sanoat mahsulotlari, mlrd so'mda	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan ishlab chiqarish indeksi, %
<b>Xorazm viloyat bo'yicha</b>	<b>29 100,1</b>	<b>108,2</b>
Urganch sh.	4 191,4	105,3
Xiva sh.	407,7	107,6
Bog'ot	664,6	106,1
Gurlan	620,5	107,2
Qo'shko'pir	638,3	110,6
Urganch	1 370,3	107,8
Hazorasp	611,3	106,1
Tuproqqal'a	14 044,0	106,7
Xonqa	1 057,6	108,1
Xiva	519,9	110,2
Shovot	1 005,3	107,3
Yangiariq	759,5	105,8
Yangibozor	821,0	108,7

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan fizik hajm indeksi Urganch shahrida 5,3 foizga, Xiva shahrida 7,6 foizga, Bog'ot tumanida 6,1 foizga, Gurlan tumanida 7,2 foizga, Qo'shko'pir tumanida 10,6 foizga, Urganch tumanida 7,8 foizga, Hazorasp tumanida 6,1 foizga, Tuproqqal'a tumanida 6,7 foizga, Xonqa tumanida 8,1 foizga, Xiva tumanida 10,2 foizga, Shovot tumanida 7,3 foizga, Yangiariq tumanida 5,8 foizga, Yangibozor tumanida 8,7 foizga oshganligini ko'rish mumkin.




### Sanoat ishlab chiqarishda hududlarning ulushi, % da



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqa'a tumani 48,3 foiz, Urganch shahri 14,4 foiz, Urganch tumani 4,7 foiz, Xonqa tumani 3,6 foiz, Shovot tumani 3,5 foiz, Yangibozor tumani 2,8 foiz, Yangiariq tumani 2,6 foiz, Bog'ot tumani 2,3 foiz, Qo'shko'pir tumani 2,2 foiz, Gurlan tumani 2,1 foiz, Hazorasp tumani 2,1 foiz, Xiva tumani 1,8 foizni hamda eng past bo'lgan va Xiva shahri 1,4 foizni tashkil qildi.

### Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida, foiz hisobida




Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e‘tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta‘minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq, Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalar tomonidan 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 16 763,9 mlrd so‘mlik, hududiy korxonalar tomonidan 9 947,4 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Shuning bilan birga davlat sektorida 136,0 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 0,5 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 26 575,3 mlrd so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 99,5 % ni tashkil etdi.

### Hududiy va tarmoq korxonlar tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari, mlrd so‘m (2024- yil yanvar-dekabr oylari)

Viloyatda 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida hududiy korxonalar tomonidan 8 952,3 mlrd so‘mlik, tarmoq korxonalar tomonidan 14 928,8 mlrd so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.




**2024- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish**

<i>Shahar va tumanlar nomi</i>	<i>Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish ming so‘m</i>
<b>Xorazm viloyati bo‘yicha</b>	<b>14 449,0</b>
Urganch sh.	27 145,6
Xiva sh.	4 099,6
Bog‘ot	3 737,6
Gurlan	3 914,0
Qo‘shko‘pir	3 472,6
Urganch	6 345,6
Hazorasp	2 939,5
Tuproqqal‘a	234 242,6
Xonqa	5 283,8
Xiva	3 320,8
Shovot	5 522,6
Yangiariq	6 117,4
Yangibozor	8 808,4

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tabaqalanishi tahlili, Tuproqqal‘a tumanida (234 242,6 ming so‘m), Urganch shahrida (27 145,6 ming so‘m) o‘rtacha viloyat darajasi ko‘rsatkichidan (14 449,0 ming so‘m) yuqoriligini ko‘rsatmoqda.

Qolgan Qo‘shko‘pir tumanida (3 472,6 ming so‘m), Xiva tumanida (3 320,8 ming so‘m) va Hazorasp tumanida (2 939,5 ming so‘m) ko‘rsatkich past ekanligini ko‘rish mumkin.

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining o‘sishi, 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, %da**




2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining o‘sishi, 2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 106,2 % ni tashkil qildi.

### Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissi

Davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik tadbirkorlik subyektlari sanoat ishlab chiqarishda yildan yilga ularning hissi tobora ortib bormoqda.

Xususan, 2024- yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda ular tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 40,2 % ga oshgan va ishlab chiqarish hajmi 6 106,0 mlrd so‘mni tashkil qilib, o‘z navbatida kichik biznesning jami sanoat ishlab chiqarishdagi ulushi esa 21,0 %ni tashkil etmoqda.


### Hududlar bo‘yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %da (2024- yil yanvar-dekabr oylari)



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Urganch tumanida (57,4 %), Xiva shahrida (55,5 %), Qo‘shko‘pir tumanida (53,4 %), Xonqa (43,8 %), Gurlan tumanida (39,5 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulush Tuproqqal‘a (2,2 %) tumanida kuzatildi.

## Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishi mlrd so'm


2024- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlaridan Urganch shahrida 1 462,4 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 786,3 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 462,7 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 340,7 mlrd so'mlik, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.




## Qo'shma korxonalarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishi

Hisobot davrida 22 ta qo'shma korxonalar tomonidan 2 604,3 mlrd so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi esa 8,9 % ni tashkil etdi.

## Viloyatda qo'shma korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %




**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda hududlar bo'yicha qo'shma korxonalarning umumiy hajmidagi ulushi, %da**




**Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari**

Bugungi kunda viloyatda 3 379 ta sanoat korxonasi faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 599 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) Urganch shahriga, 393 tasi (11,6 %) Urganch tumaniga, 326 tasi (9,6 %) Xonqa tumaniga, 290 tasi (8,6 %) Qo'shko'pir tumaniga va 260 tasi (7,7 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

**Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik**



**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
(2024- yil yanvar-dekabr)



Viloyatda 2024- yilning yanvar-dekabr oylarida 1 500 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, shularning 198 tasi Shovot tumaniga, 151 tasi Urganch shahriga, 145 tasi Urganch tumaniga, 144 tasi Qo'shko'pir tumaniga, 130 tasi Yangiariq tumaniga, 127 tasi Xiva tumaniga, 124 tasi Hazorasp tumaniga, 109 tasi Xiva shahriga, 101 tasi Xonqa tumaniga to'g'ri keladi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 79 ta loyiha bo'yicha 1647,6 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

## Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari






**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni  
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari  
(2024- yil yanvar – dekabr oylari uchun)**

Shahar va tumanlar nomi	Loyihalar soni, birlikda	Ishlab chiqarish hajmi, mlrd so'm	Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, mln AQSh dollari	Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda
<b>Jami:</b>	<b>79</b>	<b>1 647,6</b>	<b>12,4</b>	<b>237</b>
<i>shundan;</i>				
Urganch sh.	17	164,015	3,896	100
Xiva sh.	2	118,149	0,334	65
Bog'ot	1	0,060	-	1
Gurlan	5	3,104	-	-
Qo'shko'pir	3	14,936	0,818	-
Urganch	5	30,938	0,251	13
Hazorasp	5	6,213	-	5
Tuproqqal'a	25	1 112,346	7,086	35
Xonqa	2	9,050	-	10
Xiva	4	1,411	-	6
Shovot	5	185,518	-	-
Yangiariq	3	1,240	-	2
Yangibozor	2	0,605	-	-

Shahar va tumanlar bo'yicha tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, Urganch shahrida 17 ta loyihada 164,015 mlrd so'mlik, Xiva shahrida 2 ta loyihada 118,149 mlrd so'mlik, Gurlan tumanida 5 ta loyihada 3,104 mlrd so'mlik, Qo'shko'pir tumanida 3 ta loyihada 14,936 mlrd so'mlik, Urganch tumanida 5 ta loyihada 30,938 mlrd so'mlik, Hazorasp tumanida 5 ta loyihada 6,213 mlrd so'mlik, Tuproqqal'a tumanida 25 ta loyihada 1 112,346 mlrd so'mlik, Xonqa tumanida 2 ta loyihada 9,050 mlrd so'mlik, Xiva tumanida 4 ta loyihada 1,411 mlrd so'mlik, Shovot tumanida 5 ta loyihada 185,518 mlrd so'mlik va Yangiariq tumanida 3 ta loyihada 1,240 mlrd so'mlik, Yangibozor tumanida 2 ta loyihada 0,605 mlrd so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda



Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Tuproqqal'a tumani 67,5 foiz, Shovot tumani 11,3 foiz, Urganch shahri 10,0 foiz va Xiva shahri 7,2 foizni hamda eng past bo'lgan Yangiariq tumani 0,1 foiz va Yangibozor tumani 0,04 foizni tashkil qildi.

## **Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish**

**Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi** – korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, nosanoat bo'linmalarga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi: ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar).

**Sanoat ishlab chiqarishida o'zgarish indeksleri** – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

**Iste'mol tovarlari** – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarda (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi.

**Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarishi hajmi** – boshqa korxonalariga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan, korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot.

**Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash** - Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.

**Mahalliyashtirish darajasi** – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi.

**Mahsulot sotish hajmi** – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno).

**Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati** – O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

**Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash** – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.

**Ishlab chiqaradigan sanoat** – yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni, garchi ishlab chiqarishning ma'lum turi uchun birdan-bir to'liq me'zon hisoblanmasa ham, o'z ichiga oladi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash** – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish** – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.